

**INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'QUVCHILAR DUCH KELADIGAN
DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR**

Xumora Bobomirzayeva Olimovna
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti 2-bosqich talabasi
Tel:(+998) 99-352-69-75

Annotatsiya: Hozirgi davrda xorijiy tillarni o`rganish zamon talabiga aylangan davrda til o`rganuvchilar turli xil qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada xorijiy til, ya`ni ingliz tilini o`rganishda duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, o'quvchilar, grammatika, dars jarayoni, auditoriya, so'zlashuv

**CURRENT PROBLEMS FACED BY STUDENTS IN LEARNING
ENGLISH AND THEIR SOLUTIONS**

Abstract: Nowadays, when learning foreign languages has become the demand of the time, language learners face various difficulties. This article provides information about some of the problems encountered in learning a foreign language, namely English, and their solutions.

Key words: foreign language, students, grammar, teaching process, audience, conversation.

Hozirgi kunda prezidentimiz tashabbuslari bilan yoshlarning xorijiy tillarni bilish darajasini oshirish maqsadida ko`plab tashabbus va islohotlar olib borilmoqda va ayni damda katta e'tibor chet tillarni o`rganishga qaratilgani ham bejiz emas. Ma'lumki, boshqa tillarga nisbatan ingliz tilini o`rganishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Hozirgi davrda dunyoning qaysi burchagiga bormaylik ingliz tili allaqachon barcha uchun ommaviy tilga aylanib ulgurganligiga guvoh bo'lamiz. Ingliz tili jamiyatda odamlar uchun katta rol o'ynaydi. Ushbu til o'z ona tilisi bo'lmagan odamlar uchun o`rganish jarayonida qiyinchilik tug'dirishi aniq. Jamiyatda insonlar o'z o'rnini topishlari uchun ingliz tilini o`rganishlari, tushunishlari va ravon gapira olishlari kerak. Turli tillarda gaplashadigan boshqa mintaqalarga mansub odamlar bilan muloqot qilish va fikr almashish jarayonida ingliz tili muloqot qilishning umumiy tili sifatida qo'llanila oladi. Biroq ingliz tili grammatikasi murakkab, qiyin va shu bilan birga o'zbek tili grammatikasi bilan farq qiluvchi tuzilishga egaligi tufayli o`rganish jarayonida ko`plab muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. O'quvchilar grammatikani, ayniqsa, so'zlashuv jarayonida qiyin deb topishlari mumkin va bu oqibatda noto'g'ri xabar yetkazilishiga olib kelishi mumkin. Ingliz tili grammatika

qidalari aniq emas va juda ko‘p istisnolarga ega. Natijada, ularni yodlash qiyin va qo‘llash yanada qiyinroq.

Ingliz tilini o‘rganishda quyidagi muammolarga duch kelinadi:

1. Grammatikaning murakkabligi. Talabalar uchun ingliz tili grammatikasini o‘rganish juda qiyin. Ingliz tilida so‘zlashishda talabalar, asosan, grammatik xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Odatda, o‘quvchilar ingliz tilida so‘zlashda zamon, nisbat, so‘z boyligida xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Gap tuzish jarayonida ko‘pincha til o‘rganuvchilar zamonni farqlashda qiynalishadi va noto‘g‘ri ishlata dilar, ya’ni ba’zan ular o‘tgan zamonda gapirmoqchi bo‘lishsa, o‘tgan zamon o‘rniga hozirgi zamonda gapirishadi. Muammo ular o‘tgan, hozirgi va kelasi zamonlarni qanday ishlatishni farqlay olmaslidadir.

2. Auditoriyada ona tilidan ortiqcha foydalanish. Til o‘rganuvchilar yangi xorijiy tildan foydalanishga majbur bo‘lganlaridagina boshqa tilni yaxshi o‘rganadilar. O‘qituvchi talabalar o‘rganilayotgan tilda muloqot qilishlarini talab qilishi kerak. Ana shu holatdagina til o‘rganishda o‘sish, talaffuzdagi ravonlikka erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida qat’iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo‘lga qo‘yilsagina chet tilini o‘zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi.[1]

3.O‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik. Talabalarning jamoat joylarida ingliz tilida gaplasha olmasligining sabablaridan biri ham o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlikdir. Ular odamlar oldida ingliz tilida gapirisha olishmaydi. Bu, odatda, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni jamoat joylarida ingliz tilida gapirishga yetarlicha rag‘batlantirmasliklari bilan bog‘liq. Odatda, o‘qituvchilar ularni sinfda yoki odamlar oldida ingliz tilida gapirishga undashmaydi. Ular ingliz tilini o‘rganishadi, lekin so‘zlashishni yetarlicha o‘rganishmaydi. Bu, asosan, talabalar sinfda yoki odamlar oldida duch keladigan muammolardan biridir. O‘ziga bo‘lgan ishonch ingliz tilida gapirishda juda muhim rol o‘ynaydi, agar talabalar o‘zlariga ishonmasa, ingliz tilida erkin gapira olishmaydi. O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi butunlay o‘qituvchilarga bog‘liq. O‘qituvchilar ularni o‘zlariga ishonishga va jamoat oldida ingliz tilida gapirishga ishonch hosil qilishga undashlari kerak. Agar o‘quvchilar nutqda xato qilishdan tashvishlansa, o‘qituvchilar ularga hech kim mukammal tug‘ilmasligini, har kim o‘z xatolaridan saboq olishini o‘rgatishi kerak. O‘quvchilar noto‘g‘ri gapisalar ham, gapirishda davom etishlari kerak. Chunki ular xatolaridan saboq olishadi va xatolarini qayta-qayta gapirishda tuzatadilar. Shuning uchun ingliz tilida gapirishda o‘ziga bo‘lgan ishonch juda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

4.O‘quvchilarning o‘qituvchiga qaramliligi. O‘z ustida mustaqil ishslash, muammolarni mustaqil hal qilish va izlanish har qanday fanni yaxshi o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Talaba har bir kichik muammo yuzasidan o‘qituvchiga murojaat qilaverishi o‘quvchining qaramligidan dalolat beradi. Bu esa talabaning o‘z ustida ishslash imkoniyatini kamaytiradi [3].

5. Tashvish. Bu emotsional holat bo'lib, til o'rganish jarayonining uch bosqichida sodir bo'lishi mumkin va har bir bosqichda tashvish o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dastlabki bosqichida o'quvchilar notanish til yoki tushunchalarni tushunishda qiynalayotgani uchun tashvishlanishadi. Ikkinchi bosqichida stress yangi so'zlarni eslab qolish va aniqlashga urinishdan kelib chiqadi. Oxirgi bosqichida tashvish ilgari o'rganilgan tilni qayta tiklash va undan foydalanishga urinishdan kelib chiqadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tashvish ma'lum tilni o'rganishga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri bo'lishi mumkin, shuning uchun pedagog va o'qituvchilar tomonidan bolaga to'g'ri yo'nalish va yechim taqdim etilishi zarur [4].

6. Motivatsiya yetishmasligi: Chet tilini o'rganishdagi asosiy muammolardan biri motivatsiyaning yetishmasligidir. Motivatsiyani saqlab qolish qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa o'quvchining tilni o'rganish uchun aniq maqsadi yoki xohishi bo'lmasa.

7. Talaffuzdagi qiyinchilik: ko'pchilik til o'rganuvchilar talaffuzda qiyinchilikka duch kelishadi, chunki turli tillardagi tovushlar va fonetik tizimlar sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu boshqalarni tushunish va tushuntirishdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Har bir muammoning yechimi bo'lganidek, yuqorida keltirilgan muammolarning ham yechimi mavjud. Bular quyidagilar:

- Dars davomida multimedialardan foydalanish. Ta'lim uchun maxsus ishlab chiqilgan yangi, zamonaviy qurilmalar va uskunalar ingliz tilini o`qitish va o`rganishni yaxshilashga yordam beradi. Negaki o'quvchilar uchun kitoblarda yozilgan ma'lumotlar o`rniga ko`rgazmali tasvirlar, videolar, audiolar orqali fikrni anglab olishlari osonroq bo`ladi.

- Internet - resurslardan foydalangan holda chet tilini o'rganish. Bu darsda o'zaro ta'sirni yaratishni talab qiladi. Bu metodikada interaktivlik deb nomlanadi. "Interaktivlik - bu nutq vositalari yordamida kommunikativ maqsad hamda natijadagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish." (Xotamov, 2021). Bu usul nafaqat tilni o'rgatishga, balki internet nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, u lug'at va grammatika o'rganishda qiziqish uyg'otadi, shuning uchun ham unumdorlikni ta'minlaydi.

- Sinflarda o'quv musobaqalarini tashkillashtirish. Ingliz tilini o'rganishda, ayniqsa, gapirish mahoratini shakllantirishda musobaqaning o'rni muhim sanaladi. Misol tariqasida debatlar va viktorenalarni keltirish mumkin. Bu musobaqalar nafaqat o'quvchining til mahoratlarini, balki o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda hamda guruh bo'lib ishslash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

- Aniq maqsadlar qo'yish: Aniq maqsadlarni belgilash va chet tilini o'rganish sabablarini aniqlash motivatsiyani saqlab qolishga yordam beradi. Til o'rganishni nima uchun xohlayotganligi til o'rganuvchi uchun juda muhim. Shuning uchun

o'rganuvchining tilni o'rganish xohishi shaxsiy, professional yoki madaniy sabablarga ko'ra o'rganayotganini bilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Amaliyot imkoniyatlarini izlash: Ona tilida so'zlashuvchilar yoki boshqa o'quvchilar bilan mashq qilish va muloqot qilish imkoniyatlarini topish uchun til almashish dasturlari, tilda so'zlashuvchi klublar yoki onlayn til forumlari kabi resurslardan foydalanish juda muhim. Rasmiy o'quv muhitidan tashqarida til bilan shug'ullanish ravonlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir.
 - Fonetika va talaffuzga e'tibor qaratish: To'g'ri talaffuzni o'rganish va mashq qilish uchun vaqt va kuch sarflash kerak. Fonetik belgililar, audio yozuvlar kabi resurslardan foydalanish va repetitor yoki til hamkorilari bilan ishlash talaffuz qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

- Grammatika murakkabliklarini ajratish: Grammatikani bir butun sifatida tushunishga harakat qilish o'rniga, uni boshqariladigan bo'laklarga bo'lish kerak. Muayyan grammatik qoidalarni o'rganishga va ularni amaliy matnda qo'llashga e'tibor qaratish kerak. Til o'rganish ilovalari va onlayn darsliklar grammatika tushunchalarini singdirishda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin [5].

Umuman olganda, chet tilini o'rganish qat'iyatlilik, muntazam mashq qilish va real hayot sharoitida til bilan tanishishni talab qiladi. Ushbu umumiylar muammolarni hal qilish va samarali yechimlarni qo'llash orqali o'quvchilar o'zlarining til o'rganish tajribasini oshirishlari va maqsadli tildagi malakalarini oshirishlari mumkin. Xulosa o'rnila shuni aytish joizki, agar insonda til o'rganishga bo'lgan xohish kuchli bo'lsa, oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yanada osonroq va tezroq bo'ladi. Avvalo, tinimsiz mehnat, harakat va oxirida kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi. Agar inson dunyoning bir chekkasida bo'lsa ham til bilsa, u hech qachon qiyalmaydi. Til bilgan inson uchun imkoniyat eshiklari doimo ochiq.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Abdumatalipova Sh.H. Xorijiy tilni o'rganishdagi eng dolzarb muammolar // Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida. - N., 2021. 26-28
 2. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
 3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
 4. <https://www.teach-this.com/ideas/problems-learning-english>
 5. Zubaydova N.N. The teaching of English for specific purposes // Scientific researches for development future International Conference Proceeding. - New York, USA., 2019. 30-33